

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ASHUROV BEKZOD SHAVKATJON O‘G‘LI**

**ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA IT OBRAZI POETIKASI  
(Said Ahmad, Nurali Qobul va Normurod Norqobilov asarlari misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Ashurov Bekzod Shavkatjon o‘g‘li**

Zamonaviy o‘zbek nasrida it obrazi poetikasi (Said Ahmad, Nurali Qobul va Normurod Norqobilov asarlari misolida).....3

**Ashurov Bekzod Shavkatjon ugli**

The poetics of the image of a Dog in modern Uzbek prose (as examples of the works of Said Ahmad, Nurali Qabul and Normurod Norqabilov).....25

**Ашуров Бекзод Шавкатжон угли**

Поэтика образа собаки в современной узбекской прозе (на примере произведения Саида Ахмада, Нурали Кабула и Нормурода Норкабилова).....47

**E‘lon qilingan ilmiy ishlari**

List of published works

Список опубликованных работ.....51

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ASHUROV BEKZOD SHAVKATJON O‘G‘LI**

**ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA IT OBRAZI POETIKASI  
(Said Ahmad, Nurali Qobul va Normurod Norqobilov asarlari misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil2430 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Sulaymonov Mo'minjon Yusubjonovich  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Rahmonova Zulayho Jalolovna  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yo'lchiyev Qahhor Vahobovich  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "25" XII soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: [www.namdu.uz](http://www.namdu.uz), e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz) faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz) )

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1660-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (99869) 227-29-81).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "14" dekabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil "17" dekabr dagi 21- raqamli reyestr bayonnomasi).



**Z.Y.Sodiqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d. (DSc), professor

**I.O.Darvishov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**F.I.Karimova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyoti vakillari – ijodkorlar tomonidan qadim zamonlardan beri jonzotlar olamiga katta qiziqish bilan qarab kelinmoqda. Ko‘p asrlik inson ijtimoiy taraqqiyoti davrining bugungi kunigacha g‘oz, o‘rdak, xumo, semurg‘, laylak kabi qushlar ot, it, bo‘ri, yo‘lbars, ilon, baliq, qo‘y, sigir, fil kabi hayvonlar obrazining ifodasi shoir va yozuvchilar anglab yetgan badiiy tafakkur darajasini anglatib kelmoqda. Bu esa mazkur jonivorlar obrazlarini har bir davr nuqtayi nazaridan baholanib tadqiq etishni taqazo etmoqda. Ayniqsa, it obrazining badiiy asarlardagi o‘ziga xos adabiy-estetik qarashlar asosida turli davr va ruhiyat muammolarini aks ettirishi, ijodiy individuallik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni namoyon etuvchi vosita ekanligi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mavzuning o‘rganish salmog‘i ortib bormoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy obraz va obrazlilik muammosi antik davrdan jiddiy tadqiq etib kelinmoqda. Ammo XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan buyon it obraziga yangicha nuqtai nazar bilan qarash an‘anaga aylangan va bugungi kunda ham hayvon obrazini badiiy aks ettirish an‘anasining keng tarqalish sabablari mifik davr, ayniqsa, totemizm bilan bog‘liq ekanligi o‘z isbotini topmoqda. Ammo zamonaviy adabiyotshunoslikda hayvon obrazi yaratilishi omillari, badiiy-estetik asoslari, har bir hayvonning badiiy obraz sifatidagi xususiyatlari, poetikasi, hayvonlarni aks ettirgan har bir ijodkorning individual mahoratini ko‘rsatib berishga zarurat sezilmoqda. Turli hayvonlarning badiiy obrazi va ular zimmasiga yuklangan vazifalar kishilar dunyoqarashini, hayvonot va inson munosabatidagi ijobiy xislatlarni kuchaytirishga xizmat qilishi, voqelikni hayvon obrazi yordamida badiiy talqin etish, estetik ideal, yozuvchining mahorati kabi poetik masalalarni ham qamrab olishi jahon adabiyotida hayvonlarni badiiy aks ettirilish an‘anasining o‘ziga xos taraqqiyoti mavjudligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbek adabiyotidagi badiiy obraz, xususan, hayvonlar obrazini teran va har tomonlama tadqiq etish orqali zamonaviy voqelikni badiiy aks ettirishni baholash hamda kishilar dunyoqarashidagi evrilishlarni anglash vazifasiga bir qadar yechim topish imkonini beradi. “...Boy tarixiy, ilmiy, ma‘naviy-intellektual merosimizni saqlash, ilmiy tahlil qilish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida soha mutaxassislariga, tegishli ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan o‘quvchi va talabalarga batafsil ma‘lumot berib borish, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz asarlarini dunyo hamjamiyati o‘rtasida keng targ‘ib etish, zamonaviy ilm-fan, ma‘naviyat va amaliyot rivojida undan samarali foydalanish va kelgusi avlodlarga yetkazish”<sup>1</sup> adabiyotshunoslik oldiga yangi vazifalar qo‘yadi. Zero, jamiyat hayotida yuz berayotgan voqea-hodisalar ijodkor ruhiyatida in‘ikoslanib, tafakkurida qayta ishlanib, badiiy asar sifatida voqelanadi. Aynan shu xususiyatlar mavzuning dolzarbligini izohlaydi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2995-сонли Қарори. // «Халқ сўзи» газетаси. 2017 йил 25 майдаги 103 (6797)-сон.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-495-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzuidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoyishi, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek adabiyotshunosligining muhim masalalari” mavzu yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Badiiy obraz va obrazlilik, obrazning tabiati, badiiy-estetik funksiyasi, syujet va kompozitsiya bilan munosabati kabi masalalar qadimdan tadqiq etib kelinadi. Xususan, Platon, Aristotel, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Kvint Goratsiy Flakk, Yuliy Sezar Skaliger, Fillip Sidni, Georg Gegel, V.G.Belinskiy, A.Potebnya, V.Jirmunskiy, B.Shklovskiy, A.Sa’diy, A.Fitrat, Rena Uellek, Ostin Uorren, Izzat Sulton, G.Pospelov, O.Sharafiddinov, B.Sarimsoqov, U.To‘ychiyev, I.G‘afurov, H.Umurov, D.Quronov, Y.Solijonov, V.Y.Xalizev, N.D.Tamarchenko, Terry Iglton<sup>2</sup> kabi olimlar izlanishlarida masala turlicha ifoda etilgan.

---

<sup>2</sup> Афлотун. Давлат: насрий дoston. Тарж. Урфон Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 464 б.; Арасту. Поэтика. Ахлокий кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – 352 б.; Аристотель. Метафизика. Перевод с греческого П. Д. Первова и В. В. Розанова. – Москва: Институт философии, теологии и истории св. Фомы, 2006; Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Ҳиндистон. Ж.П. А.Аҳмедов ва б. барж. – Тошкент: “O‘zbekiston” NMIY 2022. – 624 б.; Абу Али ибн Сино. Шеър санъати <http://www.e-adabiyot.uz.adabiyotshunoslik>. Квинт Гораций Флакк. Пизонларга бағишлов / Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тарихи очерклари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 127-133; Юлий Цезарь Скалигер. Поэтика. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тарихи очерклари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 137-146; Филипп Сидни. Поэзия химоясига. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тарихи очерклари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 176-182; Гегель. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан Маҳмуд Абдуллаев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2011; Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: *Уздав.нашр*, 1955. – 511 б.; Саъдий, Абдурахмон. “Амалий ҳам назарий адабиёт дарелари”дан / Мумтоз шарқ поэтикаси манбалари Ҳ.Болтабоев талқинларида. 1 китоб. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 426 б.; Фитрат. Адабиёт коидалари. Токент, 1995. – 112 б.; Шкловский В. Избранные работы в 3-х томах. – Москва: Художественная литература, 1986. – 396 с.; Жирмунский В. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – С. 400.; Тимофеев Л.И. Проблемы теории литературы. – Москва: Учпедгиздат, 1955. – 302 с. Рене Уэллек, Остин Уоррен. Теория литературы. – Москва: Прогресс, 1978. – 328 с.; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М.: Художественная

Zamonaviy adabiyotshunoslikda tabiat va odam, inson va hayvon munosabatlari, shu jumladan, it obrazi va uning konkret asardagi badiiy-estetik funksiyasi bilan bog‘liq muammolar tahliliga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda yaratilgan it obrazida ijodkorning ilmiy-nazariy konsepsiyasiga bog‘lab ayrim fikr-mulohazalar aytib o‘tilgan. Xususan, Iogan Gerder, Gennadiy Snasareyov, Abil Bisinbayev, Abdug‘afur Rasulov, Sayfiddin Rafidinov, Tozagul Matyaqubova, Usmon Qosimov, Qahhorjon Yo‘lchiyev, Umida Rasulova, Sobirjon Bozorov, Abdunabi To‘ychiyev kabi adabiyotshunoslar ishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin<sup>3</sup>. Lekin mazkur ishlarda it obrazi turlicha tadqiq etilgan: 1) Gerder, Snasareyov ishlarida mifik tafakkur va xalq turmush tarzining bir qismi sifatida; 2) S.Rafiddinov, T.Matyoqubova, L.Hasanova ishlarida esa tasavvufiy talqin etiladi; 3) qolgan olimlar ishlarida esa it obrazi asosiy personajning ruhiyat olamini turli darajada yorituvchi ikkinchi darajali obraz sifatida tilga olingan.

Manbalardan ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek adabiyotshunosligida it obrazi va uning zamonaviy nasrdagi badiiy-estetik ahamiyati yetarli darajada tadqiq etilmagan.

---

литература, 1975. – 504 с.; Фафуров И. Ям-яшил дарахт. Адабий танқидий мақолалар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976.; Пospelов Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978. – 351 с.; Потeбня А.А. Слово и миф. – Москва: Правда, 1989. – С.17-200. <http://philologos.narod.ru/potebnja/>; Шарафиддинов О. Иждодни англаш бахти. – Т.: “Шарк” НМАК. 2004.; Саримсоков Б.И. Бадийлик асослари ва мезонлари. Тошкент, 2004. – 128 б.; Хализев Е.В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2013. – 412. [www.gumer.ru/books/xalizev/](http://www.gumer.ru/books/xalizev/); Теория литературы. В двух томах. Том 1. Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – Москва: Академия, 2004. – 252 с.; Terry Eanleton. Literary theory: an introduction. - 2nd ed. The University of Minnesota Press. <http://www.upress.umn.edu>. Fourth printing, 2003. – 245 p; Умуров Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарк, 2002. – 256 б.; Фалсафа. Комусий луғат. – Тошкент: Ўзбекистон миллий файласуфлар жамияти, Шарк, 2004. – 496 б.; Эстетика: Словарь / Под общ.ред. А.А.Беляева и др. – Москва: Политиздат, 1989, – 448 с.Шарафуддинова М.О. Особенности повествовательной структуры узбекского романа XX века в контексте мировой литературы. Автореф. дисс... док.фил.наук. – Ташкент, 2010. – 50 с.; Тўйчиёв У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 330 б. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа иждодий уйи, 2016. – 364 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф. жанр, хронотоп. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа иждодий уйи, 2015. – 356 б.; Якубов И.А. Мустақиллик даври ўзбек романи поэтикаси: фил.ф.д.дис.автореф. – Тошкент: 2018. – 72 б. Cuddon, J. A. A dictionary of literary terms and literary theory / – 5th ed. – London: Wiley Blackwell, 2013. – 801 p. [www.atibook.ir](http://www.atibook.ir). Мифы народов мира. Энциклопедия. В двух томах. Том первый (А-К). – Москва: Советская энциклопедия, 1980. – 672 с.; Мифы народов мира. Энциклопедия. В двух томах. Том второй (К-Я). – Москва: Советская энциклопедия, 1982. – 720. Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент.: Адабиёт ва санъат, 1965.; Қўчқорова М. Бадий сўз ва рухият манзарлари. – Тошкент: Muharrir, 2011; Ҳамраев К.Ў. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси: фил.ф.бўйича фалсафа доктори ... дис.автореф. – Тошкент, 2018. – 51 б.

<sup>3</sup> Гердер Иоганн Готфрид. Идеи к философии истории человечества. – Москва: bdn-steiner.ru 674 с.; Снесарев Г.П.Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969. – С.93 (336) Бисенбаев А.К. Көне түркілердің аңыздары. Қазақша, орысша,ағылшынша. – Алматы: Ан-Арыс, 2008 – 120 б. Rasulov A. Shafolat yog‘dusidan bahramandlik // Sharq yulduzi, 1991, 10-son. – В.189-193; Матяқубова Т.Р. Поэтик идрок ва маҳорат. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. – 172 б.; Йўлчиёв Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. – Тошкент: Ma‘rtifat bitiklari, 2021. – 252; Қосимов У. Адабий-эстетик тафаккур тадрижи: анъанавийлик, ворисийлик, ўзига хослик (Абдулла Қодирий, Абдулла Қахҳор ва Тоғай Мурод иждоди мисолида): филол ф.д (DSc) дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – 77 б.; Расулова У. XX аср ўзбек кассачилиги (поэтик изланишлар ва тараккиёт тамойиллари). – Тошкент: Qamar media, 2020. – Б.198 (320) Авакова Р.А., Бектемирова С.Б. Отражение образа собаки в тюркских и славянских языках. // Вестник РГГУ. 2009. № 3. – С.41-47. [www://cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru). Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1995. – 162 б.; Сувонов З. Тоғай Мурод иждоди поэтикаси: фил.ф.н.дисс.автореферати. Т.:2019.-48 б. Хасанова Л. “Хазойин ул-маоний” куллиётида ит образларининг тасвирланиши тамойиллари. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)

**Tadqiqotning maqsadi** zamonaviy o‘zbek nasrida, xususan, Said Ahmad, Nurali Qobul, Normurod Norqobilov hikoya va qissalarida it obrazning badiiy-estetik funksiyasi, poetikasini tadqiq etish, obrazning yozuvchi ijodiy niyatiga bog‘liq jihatlarini aniqlash va umumlashtirish hamda adabiy jarayon taraqqiyotida tutgan o‘rniga baho berish orqali it obrazining xarakterli tomonlarini ko‘rsatishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek nasrida it obrazi va syujet, kompozitsiya, asar tili kabi poetik masalalar bilan aloqasini folklor, mumtoz Sharq adabiyoti namunalari tahlili asosida tizimlashtirish, it obrazining adabiyotga kirib kelishining ijtimoiy asoslari, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

Said Ahmadning it obrazini yaratishdan asosiy maqsadi ijtimoiy muammolarni yoritish hamda kishilarning ma‘lum ijtimoiy sharoitda ma‘naviy muvozanatini saqlashda tayanch vazifasini bajarganini “Qoplun”, “Qorako‘z Majnun” hikoyalari tahlili misolida ochib berish;

Hayvonlarga, jumladan, itga uning foydasi tekanda yaxshi munosabatda bo‘lish, keraksiz bo‘lganda esa undan yuz o‘girish kishilik jamiyati uchun halokatli oqibatlariga olib kelishi Nurali Qobulning “Sening bolalik osmoning” nomli qissasidagi Bo‘ynoq, Qoravuz obrazlari orqali ko‘rsatish;

Norqobilovning “Changalzor iti” va “Oqbo‘yin” qissalaridagi it obrazi orqali esa inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar ifodasida yozuvchi qo‘llagan rivoya tarzi va obrazlarning borliqni anglashdagi spetsifik xususiyatlarini yoritish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Said Ahmadning “Qoplun”, “Qorako‘z Majnun” hikoyalari, Nurali Qobulning “Sening bolalik osmoning”, Normurod Norqobilovning “Changalzor iti” va “Oqbo‘yin” qissalari olindi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida qo‘yilgan muammoning genezisi, taraqqiyoti va badiiyatini yanada to‘laroq ochish maqsadida o‘rni bilan boshqa asarlarga ham murojaat qilinadi.

**Tadqiqotning predmetini** Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasidagi Qorako‘z Majnun, Nurali Qobulning “Sening bolalik osmoning” qissasidagi Bo‘ynoq, Qoravuz, Normurod Norqobilovning “Changalzor iti” va “Oqbo‘yin” qissalaridagi it obrazlari, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotidagi it obrazi va uning yaratilishi bilan bog‘liq an‘analar hamda obraz poetikasini tadqiq qilish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda struktural, qiyosiy-tipologik va germevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek adabiyotida it obrazi va uning tarixiy taraqqiyoti hamda mazkur obrazning har bir davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib namoyon etadigan ijtimoiy-siyosiy, milliy-mental, ma‘naviy-axloqiy, badiiy-estetik vazifasi ochib berilgan;

XX asr o‘zbek nasrida Said Ahmad, Nurali Qobul, Normurod Norqobilov asarlaridagi it obrazining tadrijiy takomili aniqlanib, mazkur obrazning yuzaga chiquvchi omillari, shuningdek, an‘naviy, ruhiy-emotsional va hissiy anglash vosita va usuli ekanligi dalillangan;

Said Ahmad asarlaridagi Qorako‘z Majnun, Qoplon laqabli it obrazlari yordamida insonga insonning sadoqatini badiiy yoritilishi orqali XX asr ikkinchi yarmida kishilik jamiyatida global muammoga aylangan inson shaxsning tushunishdagi murakkab mashaqqatlar tahliliy isbotlangan;

Nurali Qobul qissasidagi bola va it o‘rtasidagi o‘zaro ma’naviy bog‘liqlik, Normurod Norqobilov qissalaridagi it obrazlari orqali kishilar turmush tarzining jonvorlar hayotiga o‘xshash holatlari tasviri, har bir personaj va it obrazi orqali jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar ifodasi yozuvchilarning individual yondashuvi, mahorati va asarlarning poetik xususiyatlarining kuchaytiruvchi badiiy ifoda jarayonlari uchun vosita ekanligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

It obrazi badiiy-estetik voqelik sifatida uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o‘tganligi Sharq yozma yodgorliklari, qadimgi turkiy mif, o‘zbek yozma adabiyoti hamda folklor namunalari tahlilida yaxlit tizimga solindi. Bunda it obrazining odam hayotidagi ijobiy jihatlari, badiiy asardagi turli badiiy ma’nolari, ramziy, majoziy ifodalari solishtirildi.

Dissertatsion tadqiqot davomida kelingan ilmiy-nazariy mulohazalar, ilmiy xulosalar, aniqlangan materiallar o‘zbek nasri muammolari, jumladan, Said Ahmad, Nurali Qobul, Normurod Norqobilov kabi yozuvchilar ijodi bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchi va talabalariga yangi ilmiy-amaliy ma’lumotlar berishi, badiiy obraz va uning takomili, it obrazining badiiy-estetik vazifasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, nasr poetikasini amaliy jihatdan o‘rgatishda muhim manba sifatida xizmat qilishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, tadqiqot obyektini va predmetini belgilanganligi, aniq chiqarilgan xulosalarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, misollar struktural, qiyosiy va germeneytik tahlil amalga oshirilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tahlil jarayonida o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti tabiatidan kelib chiqilganligi, natijalarning vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari, ilmiy xulosalari voqelikni badiiy idrok etish, badiiy obraz yaratish asoslari va omillari, o‘zbek badiiy tafakkuri tarixidagi tadrijiy takomili, obraz yaratishda har bir ijodkor yondashgan tamoyil, qo‘llagan usul hamda o‘zbek nasrida it obrazining shakliy-mazmuniy yangilanib borishi haqidagi qarashlar adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiy tanqid tarixi, yangi o‘zbek adabiyoti fanlarini nazariy jihatdan takomillashuviga xizmat qiladi.

Said Ahmad, Nurali Qobul, Normurod Norqobilov asarlaridagi obraz, syujet va kompozitsiyalar tizimi, yozuvchilarning har bir obrazga o‘z ijodiy konsepsiyasidan kelib chiqib yondashganligi, bunda yozuvchilar izlanishlari, erishgan yutuqlari haqidagi ilmiy-amaliy fikrlar “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon” kabi fanlarni o‘qitishda, yozuvchilar ijodi haqida maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik va

qo‘llanmalar yaratishda, badiiy obraz va aniq ijodkor nasri bo‘yicha ilmiy izlanishlarga shakliy-uslubiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Zamonaviy o‘zbek nasrida it obrazi poetikasining Said Ahmad, Nurali Qobul va Normurod Norqobilov hikoya va qissalari misolidagi tadqiqot natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek adabiyotida it obrazi va uning tarixiy taraqqiyoti hamda mazkur obrazning har bir davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib namoyon etadigan ijtimoiy-siyosiy, milliy-mental, ma‘naviy-axloqiy, badiiy-estetik vazifasi ochib berilgan fikr va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz, tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 11-iyuldagi № 04/1-1815-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada loyihada o‘zbek nasridagi obraz va obrazlilik an‘analari haqidagi ma‘lumotlar yangi ilmiy-ma‘lumotlar bilan boyitilgan;

XX asr o‘zbek nasrida Said Ahmad, Nurali Qobul, Normurod Norqobilov asarlaridagi it obrazining tadrijiy takomili aniqlanib, mazkur obrazning yuzaga chiquvchi etalon, an‘anaviy, ruhiy-emotsional va hissiy anglash vosita va usuli ekanligi dalillangan natijalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining IL-402104474 raqamli “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 11-iyuldagi № 04/1-1814-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Said Ahmadning it obrazini yaratish mahoratiga oid qarashlar yozuvchi ijodiga oid yangicha manba bo‘lib xizmat qilgan;

Said Ahmad asarlaridagi Qorako‘z Majnun, Qoplon laqabli it obrazlari yordamida insonga insonning sadoqatini badiiy yoritilishi orqali XX asr ikkinchi yarmida kishilik jamiyatida global muammoga aylangan inson shaxsning tushunishdagi murakkab mashaqqatlar tahliliy isbotlangan fikr-mulohazalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” DMning “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Millat va ma‘naviyat” eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘ZMTRKning 2024-yil 8-avgustdagi 04-36-922-son ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlari mazmuni boyishi, badiiy obrazning estetik, ma‘naviy-ma‘rifiy hamda tarbiyaviy-axloqiy xususiyatlari orqali kishilarni emotsional-estetik his-tuyg‘ularni uyg‘otish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ishlarining saviyasi oshishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika 2 ta xalqaro konferensiyalarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda

5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 145 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, usullari aniqlangan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga hamda tadqiqot mavzusi dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi aprotatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Badiiy obraz asoslari va taraqqiyoti”** deb nomlangan birinchi bobi ikki faslni o'z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli **“Badiiy obraz genezisi va takomili”** tadqiqiga bag'ishlanadi.

Badiiylik san'atning barcha turida (rassomchilik, kino, arxitektura, teatr, raqs va h.) ijodkorning borliqni badiiy idrok etishi orqali yangicha olam yaratishini nazarda tutadi. Bunda ijodkor real voqelikni aynan aks ettirmaydi, balki uni o'z tasavvurida, o'zining ijodiy konsepsiyasi asosida jiddiy qayta ishlaydi. Natijada real borliq tashqi olamga o'xshaydi, ammo aynan takrori emas. Bu badiiylikning, badiiy obraz yaratishning umumiy va eng birinchi xususiyatlaridan sanaladi.

Mazkur faslda Arastu, Aflotun, Yuliy Sezar Skaliger, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Gegel, Jan-Batist Dyubo, G.E.Lessing, A.A.Potebnya, Yan Parandovskiy, M.Baxtin, G.N.Pospelov, V.Y.Xalizev, M. Epshteyn kabi jahon olimlari, Izzat Sulton, A.Alimuhammedov, B.Sarimsoqov, T.Rasulov, N.Xatamov, I.Haqqul, H.Umurov kabi o'zbek olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari metodologik asos sifatida keltirilgan. Ular badiiy tafakkur real borliqni qayta yaratish jarayonida ijodkor ongida yuz beradigan jarayon: dispozitsiyani kompozitsiyaga, fabulani syujetga aylantirish, qisqasi hayotiy materialdan badiiy obraz yaratish bosqichidan o'tishini ta'kidlab o'tganlar. Natijada badiiy obrazning qator xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Har bir badiiy asarda obraz va uning namyon bo'lishi ijodkorning borliqni badiiy idrok etishi sifatida qabul qilinadi. Xususan, Arastu **“Poetika”**da borliqni badiiy idrok etish, obrazli ifoda, aks ettirish haqida quyidagilarni yozgan: **“Bu sohada asarlar yana aks ettirishning usullari jihatidan ham bir-biridan farqlanadi. ... Nima bilan, nimani va qanday aks ettirish usulidagi uch tavofut ana shulardan iborat”**<sup>4</sup>. Mazkur fikrda olim adabiy tur va janrlar predmeti haqida fikr yuritib, predmet real borliq ekanligini aniq, ammo ularning aks ettirish usullarida farq

<sup>4</sup> Аристотель. Поэтика (Поэзия санъати ҳақида). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 10.

bo'lishini nazarda tutadi. Masalan, qaysi voqea (nimani), haqiqatdan u nasr yoki lirik asar uchun asos bo'la olishi, agar hikoyabop, yoki lirikaga xos, yoki dramaga mosligini bo'lsa shu uchtadan biriga jalb qilish mumkinligi, lekin ana shu voqelikni ham qay tarzda nima yordamida obrazga aylantirish zaruratini ham ta'kidlaydi. Bu juda aniq va muhim tamoyil sanaladi.

Badiiy obraz takomili yo'lida nemis olimi Gegelning salmoqli fikrlari bor. Xususan, murafakkur obraz turi, belgi va ramzlar haqida bahsga kirishayotib ramz obraz sifatida bir nechta ma'noga ega bo'lishi va bu asar mazmunida qo'shimcha mazmun yaratishini ta'kidlab, quyidagi muammoni qo'yadi: "Ramz deganda ko'z oldimizga allaqanday mavjud narsa haqida tushuncha beruvchi aniq shakl, qiyofa, obraz keladi. Masalan, sher, burgut, ma'lum rangi o'zlarini namoyon qiladi va shu bilan ularning ifodasi uchun anglatgan ma'nosi yetarlidir. Shuning uchun savol tug'iladi: oldimizda turgan sher obrazi faqat o'zinigina ifodalaydimi yoki anglatadimi, yoki u boshqa allaqanday mavhum mazmunni ham, masalan, qahramon, yil fasli, dehqonchilik kabilarni ham anglatadimi; shunda ikkilanish paydo bo'ladi, biz bir vaqtning o'zida obrazning o'z ma'nosini yoki ko'chma ma'nosini qay tarzda anglashimiz kerak?"<sup>5</sup> Olim ana shu muammoni qo'yadida asarni tushunish, badiiy-estetik talqin haqidagi fikrlarini aytib quyidagi aniq yechimni ko'rsatadi: "Bunday ikki ma'nolilik ikki tomon ham kerakli nomni olgach tugaydi, ya'ni qaysinisi ma'ni, qaysini obraz ekanligi aniq ko'rsatilishi kerak"<sup>6</sup>. Demak, obraz badiiy kontekstda qayta yaratilar ekan, uning zimmasidagi ma'no va vazifa aniq bo'lishi kerak, degan xulosaga kelamiz.

Ijodkor badiiy obraz orqali tafakkur qiladi, borliqni idrok etadi. Badiiy obraz ijodkorning borliqqa, mavjudlikka munosabati sifatida bir nechta qirralarga ega bo'ladi. Birinchidan, bunday munosabat real borliqqa ijodkorning estetik bahosi ekanligini manbalarda qayd etilgan, ikkinchidan, bunday munosabat ijodkorning borliqni anglashi, tushunishi, borliq haqida fikr yuritgani mahsuli sanaladi. Uchinchidan, obraz orqali munosabat bildirish yaratuvchanlik, ijodkorlik xususiyatiga ham ega bo'ladi. Natijada har bir obraz o'ziga xoslik, betakrorlik kasb etadi. Yuqoridagi har uchala xususiyat yaxlit tizimlilik hosil qilib, ijodkorning badiiy-ijodiy niyati, idealini ham belgilaydi. Demak, badiiy obraz real borliqdagi biror narsa, voqea, shaxs, joyning shunchki qayta yaratilgan shakli emas, balki ijodkorning ruhiy-intellektual va ijodiy faoliyati mahsuli deyish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida badiiy obrazning nazariy asoslarini boyitadi va obrazning turli tur va shakllarini ham diqqat bilan tadqiq qilishni taqazo etadi.

Izzat Sulton shakl va mazmun birligi hamda uning asosini tashkil etuvchi komponentlar – badiiy g'oya, ideal, mavzu, muammo, syujet, kompozitsiya, obraz, til kabilarning yaxlit tizimga kirishishini ta'kidlar ekan, ularning har biri badiiy obrazga aloqadorligini qayta va qayta ta'kidlaydi. Xususan, badiiy g'oyaga ta'rif berayotganda "badiiy g'oya obrazli fikrdir. U faqat obyektiv tasvir etilgan hayot manzarasi, kishilar taqdiri, voqealar mantiqi va mohiyatidan o'z-o'zidan kelib

---

<sup>5</sup> Георг Вильгельм Фридрих фон Гегель. Эстетика. В 4-х томах. Том второй. – Москва: Искусство, 1969. – С.16.

<sup>6</sup> Yuroqidagi manba. – С.17

chiqadi”<sup>7</sup>. Mazkur o‘rinda olim obraz tushunchasining keng ma‘nodagi tasviri haqida fikr yuritar ekan, uning tagzamidagi badiiy g‘oya bo‘lishini ta’kidlaydi. Chunki badiiy tafakkur ijtimoiy ong shakli sifatida ma‘lum badiiy g‘oyani ilgari surishi tabiiy sanaladi.

Faslida voqelikni badiiy idrok etish va uning ifodalash, obraz yaratish asoslari haqida qadimdan mavjud bo‘lgan va turli xalqlar adabiyotshunosligida qat’iy tamoyil sifatida qabul qilingan fikr va mulohazalar tizimlashtirildi, yetuk olimlarning obraz xususiyatlari haqidagi qarashlari umumlashtirildi. Bunda muhim jihatda badiiy obraz har bir davrda o‘zining u yoki bu jihatini namoyon etib, takomillashib borgan. Natijada badiiy obraz doimiy o‘sib, o‘zgarib boradigan umumiy jarayon ekanligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Shuningdek, har qanday badiiy asarning qadriyat sifatida baholanishidagi muhim jihat bu uning badiiyligi, obraz va obrazlilik masalalasiga qanchalik mos kelishi bilan o‘lchanadi. Mazkur o‘rinda badiiylilik, obraz yoki obrazlilikning murakkab mutanosibli, muallifning tajribasi, ijod jarayoni, badiiy nutqdan foydalanish mahorati kabi qator masalalar ham muhim ahamiyatga ega.

Bobning ikkinchi faslida **“O‘zbek adabiyotida it obrazining ijtimoiy-falsafiy va badiiy-estetik asoslari”** masalalari yoritilgan.

Badiiy obraz o‘zining tabiati, xarakteri va xususiyatlariga ko‘ra, murakkab, serqirra hamda turli shaklda namoyon bo‘ladi. U aynan qaysi shakl, qay ko‘rinishda, kimning yoki nimaning obrazini (masalan, daraxt, olma, tog‘, gul, miltiq, ot, it, odamni) aks ettirishidan qat’i nazar unda muallifning tashqi borliqqa bo‘lgan ruhiy-intellektual, hissiy-falsafiy va aqliy munosabati yuzaga chiqadi. Shu ma‘noda biz tahlil qiladigan va tadqiqot obyekti sifatida olgan asarlarda it obrazi orqali ham insonshunoslikka oid muammolar badiiy tahlil qilinadi.

Badiiy adabiyotda hayvonot va inson obrazlarining yaqin munosabati qachon yaratila boshlangani hali aniq emas. Ammo polyak olimi Yan Parandovskiy badiiy so‘z tarixini qadim odamlarning tabiat bilan uyg‘un yashagan davri, hali inson o‘zini umumiy hayvonotdan ayro qo‘ymagan paytlaridan izlaydi. “Inson nutqining sarchashmalari haqida bizga hech narsa ma‘lum emas; affekt (qattiq hayajon, jazava) holatidagi nido, xitoblardan, hayvonlar va qushlarning ovozlari taqliddan, borliqning qandaydir bir bo‘lagini izohlaydigan bo‘g‘inlardan til yuzaga kelgan”<sup>8</sup>. Mazkur o‘rinda inson hali nutqi shakllanmagan paytlarda hayvonot bilan baqamti yashgani va ularga taqlid qilganini to‘g‘ri ta’kidlaydi. Lekin keyingi ijtimoiy taraqqiyot hayvonot va inson o‘rtasidagi farqlarning keskinlashuviga olib keldi. Ijtimoiy taraqqiyotning ma‘lum vaqtida odamzot hayvonlarni, jumladan, itning ham kishilik jamiyatiga ta’sirini e’tirof etgan, uni muqaddaslashtirgan.

Aslida it, ot, qo‘y, bug‘u, tuya kabi hayvonlarni kuzatib, ularning ijobiy jihatlarini o‘zlashtirish an’anasi qadimdan mavjud. Masalan, “Qutadg‘u bilig” asarida beklar ziyrak bo‘lishi kerakligini targ‘ib qilib, odamni bug‘uga o‘xshatilgan o‘rin bor<sup>9</sup>. Erkak tuyaga o‘xshab, kuchli va irodali bo‘lsin deya bolaga

<sup>7</sup> Sul-ton, Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B.98.

<sup>8</sup> Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б.198.

<sup>9</sup> Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқ фольклори. – Тошкент: Баёз, 2013. – Б.73.

Bug‘raxon deb ism ham qo‘yilgan. Shu ma’noda it va uning sadoqatli, qanoatli, ziyrak, jasurlik kabi xislatlariga qadimda e’tibor qaratilgan. Bu turkiy xalqlarning turmush tarzi, olamni anglashi va tushunishi bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining islomga qadar bo‘lgan urf-odatlarini, dunyoqarashlarini puxta tadqiq etgan rus olimi G.P.Snesarev oilada farzand turmasa yoki ketma-ket vafot etsa, yangi chaqaloq tug‘ilganda quyidagi odat amalga oshirilganini yozadi: “Bola tug‘ilgach uni itning oldiga qo‘yishgan (bolani “itdek ko‘paysin” degan niyatda)”<sup>10</sup>. Ko‘rinadiki, it shu o‘rinda har qanday muhitda ham yashovchan ekanligi, chidamliligidan kelib chiqib, insonlar o‘z maqsadlariga yetishda itga inonch bildirishgan. Aniqrog‘i, bu itga kult sifatida yondashilgan davrdan yetib kelgan unsur deymiz. Shunday bo‘lsa-da, avlod qoldirish, farzandlik bo‘lish insonning muhim tabiiy funksiyasi sifatida odamlarni turli narsalarni yaratishga undagan.

Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yozma madaniy yodgorligi bo‘lgan “Avesto” (ba’zi manbalarda “Abista”)da sigir, qo‘y, it, teva (tuya, nor), xo‘roz, ot haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, “Avesto”ning uchinchi daftari, “Vandidod” nomli qismida bevosita ba’zi itlar va ularning inson turmush tarziga bog‘liq jihatlari, itni ulug‘lash odatlari haqida talaygina o‘gitlar keltirilgan<sup>11</sup>. “Avesto”da it kishilar hayotidagi ahamiyatiga ko‘ra ham ajratilgan: 1) Ahriman yaratgan dev, ins-jins kabi yovuz kuchlar, turli bosqindan himoya qiluvchi itlar; 2) cho‘ponlarga yordam beruvchi itlar.

Ko‘rinadiki, ularni insonning yordamchilari sifatida ulug‘lashgan. Bu, avvalo, o‘sha davrdagi kishilar tushunchasi, chorva, dehqonchilik bilan bog‘liq turmush tarzidan kelib chiqqan.

Qozoq olimi A.K.Bisenbayev qadimgi turk miflari haqidagi kitobida islomgacha bo‘lgan davrda turkiylarning odamni yaratilishi haqidagi mifi keltirilgan. Unda Tangri odamni tuproq (balchiq) va toshda yaratgani, u mangu hayot kechirishi, ruhi yo‘qligi, go‘yoki qo‘g‘irchiqdek ekanligi haqida bayon qilinadi. So‘ngra odamga ruh berish jarayoni va uning itga bog‘liqligi haqidagi voqeani keltiradi<sup>12</sup>.

“O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida bevosita it obrazi bilan bog‘liq yuzdan ortiq maqollar borligi aniqlandi<sup>13</sup>. Ularda it so‘zi, shuningdek, “tozi”, “boytevat”, “kuchuk” so‘zlari qo‘llangan bo‘lib, mavzu jihatdan turli mavzularda qo‘llanilgan. Masalan, vatanparvarlik, yurtga fidoiylik, birlik, do‘stlik, jamoyaviylik, imkonsizlik, shaxs erki, mehnatsevarlik va dangasalik, intilish, harakat qilish, olg‘a yurish, ruhan tushmaslik, mehirsizlik, yuzsizlik, do‘stlik, hamkorlik kabilar shular jumlasidandir.

<sup>10</sup> Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969. – С.93.

<sup>11</sup> Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Масъул муҳаррир ва нашрга тайёрловчи Нарзулла Жўраев. Тарж. Асқар Маҳкам. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б.213-322.

<sup>12</sup> Бисенбаев А.К. Көне түркілердің аңыздары. Қазақша, орысша,ағылшынша. – Алматы: Ан-Арыс, 2008 – 120 б.

<sup>13</sup> O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B.; Mas’ul muharrir: Turdimov Sh. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 512.

Yuqorida biz it obrazi bilan bog‘liq tushunchalarning mavzusiga ko‘ra tasnifini keltirdik, xolos. Shu yerning o‘zida ham it obrazining ijobiy va salbiy ifodasini, ba’zi o‘rinlarda majoziy ma’nodan inson xarakterini aks ettirganini kuzatish mumkin. “Boynikini boytevat qizg‘anar”<sup>14</sup>.

Aslida mif, maqol, rivoyatlar ham kishilik jamiyatining muhim jihatini, jumladan, odam va tabiat, odam va hayvonot o‘rtasidagi qadimdan qolgan munosabatlarni ifodalaydi. Zero, “Hayvonlarni kult darajasida tasvirlash – inson ijodiyotining qadimgi ko‘rinishi. Hayvonlar kulti qadim odam o‘zi va tabiat o‘rtasida o‘tkazgan birinchi chegara hisoblanadi. Bunda u tabiat qudratini tan oladi, ammo o‘zini undan butunlay ajratmaydi. Shu tariqa ma’naviy hayotda hayvonlarning o‘rni qisman kamaygan. Ammo animalizm til va madaniy stereotiplar, badiiy obrazlarda ma’no hosil qiluvchi sifatida qolaverdi”<sup>15</sup>. Shu ma’nodan it obrazi ham dastlab qadimgi odamning totemistik tafakkuri mahsuli sifatida xalq og‘zaki ijodining qator janrlari tarkibida faol qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik, ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida vazifasi o‘zgara bordi. Xususan, o‘zbek mumtoz lirikasida u tasavvufona mohiyat kasb eta boshladi. Bu haqda bir qancha olimlarning, xususan, S.Rafiddinov<sup>16</sup>, T.Matyoqubova<sup>17</sup>lar ishlarida qimmatli fikrlar borligi aniqlandi.

XX asrda tabiat tasviri, hayvonot olami va inson munosabatlarini realistik asosda yaratilish kuchaydi. Xususan, ishda Abdulla Qodiriy “It urishdirish ishlari” nomli kichik epik asari<sup>18</sup>, Said Ahmadning “Qoplon” nomli hikoyasi<sup>19</sup> atroflicha tahlilga tortilgan. Umuman olganda, XX asr o‘zbek nasrida it obrazi va uning kishiga sodiqligi, sadoqati, vafodorligi haqidagi asarlar mavjud bo‘lib, bu qadim an’analarning yangicha talqini sifatida baholanishi mumkin.

Xullas, o‘zbek adabiyotida it obrazining tadrijiy takomili bir tekisda, doimiy ijobiy bo‘lavermagan. Xususan, islom dini kirib kelguncha bo‘lgan davrda it obrazi ijobiy va salbiy ma’nolarda nisbatan faolroq bo‘lgan. Ammo islom dini kirib kelgach, it obrazi tasavvuf adabiyotida ramziy ma’nolar bilan qo‘llandi. Uning asl mohiyati deyarli aks ettirilmadi. Lekin XX asr boshlaridan boshlab, it obrazini realistik asosda tasvirlash kuchaydi. Bu esa yozuvchilarga mazkur obrazni turli qusrlardan badiiy tasvirlash imkonini berdi.

Dissertatsiyaning “**Obrazning obyektiv va subyektiv tasviri**” nomli ikkinchi bobida yozuvchi Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasi hamda Nurali Qobulning “Sening bolalik osmoning” qissasidagi obrazlarni yoritishga qaratilgan.

Bobning “**Qorako‘z Majnun**” hikoyasidagi it obrazining badiiy-estetik vazifasi” nomli birinchi faslida badiiy obraz ifodasida yozuvchi tutadigan yo‘llar,

<sup>14</sup> O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B.; Mas’ul muharrir: Turdimov Sh. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 290.

<sup>15</sup> Авакова Р.А., Бектемирова С.Б. Отражение образа собаки в тюркских и славянских языках. // Вестник РГГУ. 2009. №3. – С.41-47. [www://cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru).

<sup>16</sup> Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.60.

<sup>17</sup> Матякубова Т.Р. Поэтик идрок ва маҳорат. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. – Б.41.

<sup>18</sup> Қодирий, Абдулла. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2014. – Б.605.

<sup>19</sup> Said Ahmad. Qoplon (hajviy) hikoya. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/said-ahmad-1920-2007/said-ahmad-qoplon-hajviya>.

masalan, it obrazini bir yozuvchi obyektiv tasvirlasa, boshqasi esa subyektiv tarzda aks ettirishi haqida fikr yuritiladi. Bu, avvalo, yozuvchilarning badiiy niyati va o'ziga xos uslubini ko'rsatadi. Masalan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad "Qorako'z Majnun" hikoyasida Qorako'zni obyektiv ravishda tasvirlaydi. Shuningdek, uning asardagi vazifasi, kompozitsiyadagi o'rni ham ajralib turadi. Nurali Qobulning "Sening bolalik osmoning" nomli qissasida esa Bo'ynoq obrazi epik qahramon nuqtayi nazari bilan, ya'ni subyektiv tarzda aks ettiriladi. Natijada birinchi galda it bilan bog'liq jarayon, syujetdagi ifodalar roviyning subyektiv tushunchasi, dunyoqarashi bilan bog'liqlik kasb etadi.

Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" nomli hikoyasida musulmon ayolining odatiy turmush tarzi obraz sifatida berilgan. Tor ma'noda konkret shaxs, Saodat ayaning obrazi yaratilgan. Keng ma'noda esa bir ayolning obrazi orqali bugungi davrdagi shaxs va jamiyat obrazi yaratilgan. Hikoya ikkita epigraf bilan boshlangan. Birinchi epigraf Qur'oni karimdan olingan. Ikkinchi epigraf aynan it obraziga taalluqli bo'lib, asar mazmuniga to'la muvofiq keladi: "Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu "As'hobi Kahf"ning itidir". (Al-jome' al-Kabir). Demak, it g'or ahlidan bo'lib, u jannati ekanligi e'tirof etilishi asarda ilgari surilgan badiiy-estetik konsepsiyaga mos keladi.

Yaqin o'tmishimizda avj olgan xudosizlik, egasizlik (umumiylik), shaxs sifatida odamni tan olmaslik kabi jihatlar, o'tgan XX asrning yetmishinchi-to'qsoninchi yillarida kuchaygan ma'naviy qashshoqlik Saodat aya oilasini ham chetlab o'tmagan edi. Yozuvchi ana shu hayotiy xulosalarni badiiy umumlashma sifatida hikoyaning struktural-semantik arsenaliga aylantirdi. Saodat aya tilida esa muallif o'zining pozitsiyasini badiiy ifodalaydi. Odam va tabiat, shaxs va jamiyat munosabatlarining ilohiy rishtalarini teran anglagan ayol uchun farzandlarining oqibatsizligidan jabr ko'rishda bosh aybdor o'zi ekanligini ich-ichidan sezib turishini ham anglatadi. Hikoyada epik qahramonning o'ziga xosligi tush vositasida ifodalangan. Bu yerda Saodat aya ruhining bezovtalanishi, onaning farzandini jamiyatda o'z o'rnini topishiga bo'lgan ilinji, o'g'lini so'nggi bor ko'rib qolish istagi Bo'rixon haqida o'ylashga majbur qilgani ta'kidlangan. Shu yerda epik subyektning botiniy olamidagi cheksizlikning bir qismi, behalovat epik kechinma bilan bog'liq qismi hikoyadagi voqealar tizimiga jalb etilgan. Ungacha ijodkor it, hovli, Qumri va Saodat ayaning bir kunlik turmushi va uzoq yillik tashvishi haqida badiiy informatsiya beradi. Endi "Ijodkor ongida asarning voqealar tizimi (syujeti), ularning muayyan tartibda bog'lanishi (kompozitsiyasi), voqealar tizimini harakatga keltiruvchi va dinamikasini ta'minlovchi personajlar, ularning faoliyati uchun zarur bo'lgan makon va zamon kabi badiiy ijod uchun zaruriy shartlar bajarilgach, uning qiyin va og'ir bosqich – ijodkor ongini, qalbini chulg'ab olgan g'oyani ifodalovchi barcha narsalarni so'zda tasvirlab yoki ifodalab berish jarayoni boshlanadi"<sup>20</sup>. Bu muhim jarayon bo'lib, voqealar syujetiga kirib kelgan o'g'li – Bo'rixonning o'ris yurtida qolib ketishi haqidagi muhim xabarni keltiradi.

---

<sup>20</sup> Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлар. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б.119.

Avvalo, aytish kerakki, rivoyada itning ta'rifidan keyin Bo'rixon haqida ma'lumot berilishi va bunda yozuvchi rivoyaviy bayon usulidan foydalangani hamda it va odam ismining itsimonlarga yaqin bo'lgan bo'ri bilan atalishida ham yaqinlik kuzatiladi. Bunda it ham daydib ketishi mumkin, it ham kerak bo'lsa, o'z oilasini tan olmasligi mumkinligi daydi o'g'ilga qiyoslangan. Shu ma'noda it obrazi predmetlilik darajasiga moddiylik kasb etib, aniq maqsadni anglatuvchi hamda boshqa obrazlar bilan yaxlit tizim hosil qiluvchi belgi vazifasini ham o'taydi. Chunki badiiy obraz va obrazlilik tushunchasi o'rniga ko'pincha "badiiy belgi" atamasi ham qo'llaniladi. Zero, "Belgi – moddiy predmet bo'lib, vakil yoki boshqalarning o'rnini bosuvchi, predmetni (yoki o'ziga xos xususiyat va munosabatni) oldindan anglatadi. Belgilar tizim tashkil etib, ma'lumot olish, saqlash va boyitishga, ya'ni birinchi galda anglash ahamiyati uchun xizmat qiladi"<sup>21</sup>. Shu ma'noda it bu yerda obrazdan ko'ra ko'proq belgi sifatida kelgan hamda Saodat aya va unga bog'liq bo'lgan boshqa obrazlar o'rtasidagi munosabatning ahamiyatini kuchaytirishga, ularning oldindan amalga oshiradigan harakatlarini ham belgilashga, ko'rsatishga yordam beradi. Natijada syujetning shu yerida it tasviri, uning xursandchilikdan ovoz chiqarib, turli qiliqlar qilishi tasvirga rang-baranglik baxsh etgan, Saodat ayaning qalbidagi ko'tarinkilikni ifodalagan. Lekin Saodat aya obraz sifatida yoshiga munosib harakat qiladi, itga qarama-qarshi ravishda bosiqlik bilan, sekinroq harakat qiladi, erinmasdan bir bo'yradek joyga ekilgan o'smaning sersuv, bo'liq barglarining tagidan kertib uzadi, rayhonning gul otmagan shoxlaridan sindirib oladi, so'ngra o'smaga qo'shib, dastro'molga o'raydi. Bu harakatlarni u shoshmasdan bajaradi. It esa tezkor, u shoshadi. Xususan, qizining uyiga yaqinlashgach it kampirdan ancha ilgari ketadi va Saodat ayaning nabiralari Qorako'zni tanib buvim kelyapti, deya itga peshvoz chiqishadi. Voqeaning shu yerida itning personajlarga oldindan xabar beruvchi ekanligi ko'rinadi.

Rivoya markaziga itning chiqarilishi mazkur obrazning faoliyati kengayib, asar syujeti, obrazlar kompozitsiyasidagi vazifalari teranlashib borganligini anglatadi. Xususan, Saodat ayaning mehmonga borishida Qorako'z Majnunning yo'l boshlovchi va erka farzanddek aks etishi tasvirda itning obraz sifatida umumlashma obraz ekanligini ko'rish mumkin. Bitta it bir safargi sayohatda shuncha qiliqlarni qilishi uchun Qorako'z o'ta quvnoq, o'yinqaroq it, shuningdek, kampirni tushunuvchi hamroh sifatida berilgan. Boshqa tomondan esa u kampirning gapiga kiryapti, Saodat ayaga maslahat solyapti, qay tomonga borishni so'ramoqchidek yo'lda to'xtayapti. Uning harakatlarini to'g'ri anglagan aya qizirikiga yo'lni buradi. Shu yerda roviy obrazni assotsiativ tarzda Saodat kampirning o'g'li Bo'rixon bilan qiyoslashga undaydi. It obraz sifatida kampirga shu qadar yaqinligini va uning umumlashma harakatlarini asoslash asnosida beixtiyor kampirning qalbidagi armoni, boshqa dinga o'tib, xristian qiziga uylanib, onasini, uyini unutgan, dinidan voz kechgan bevafo o'g'li bilan solishtirish imkoni yuzaga keladi. Chunki, birinchidan, obrazlar o'zaro solishtirilganda zimmalaridagi badiiy-estetik vazifa ochiladi. Ikkinchidan esa, itning tasviriga bu qadar katta

---

<sup>21</sup> Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2004. – С.102.

e'tibor berilishi va kampir uni o'z farzandidek ko'rishi zamirida o'g'il va it obrazlarini solishtirish ehtiyoji tug'iladi. Shu yerda it obrazining kampir ruhiyatini ochishdan tashqari, hikoya kompozitsiyasidagi syujet rivojini ta'minlashdek vazifasi borligi ko'rinadi.

Inson sifatida Saodat aya axloqiy ideali yuksak, ma'naviy olamida hayvon (jamodot)ni ham tiriklikning bir bo'lagi, Yaratganning yaratig'i sifatida qadrlaydi. Chunki Yaratganga mehr qo'ygan, qalbida imoni bor odam Alloh yaratgan barcha maxluqotni sevishi, ularga mehr ko'rsatishi shart bo'ladi. Zero, "Estetik ideal – ijodkor butunligi, estetik ideal – ijodkor ma'naviy-ruhiy, amaliy-estetik hayotining badiiy ifodasi" hisoblanadi"<sup>22</sup>. Shu ma'noda it ham yozuvchi idealining timsoliga ishora sifatida syujet kompozitsiyada sekin-astalik bilan yetuk obrazga, undan esa badiiy kodga aylana boradi.

Saodat aya ham alohida subyekt sifatida ichki olamida ichki ziddiyat, kolliziya borligi uning qayerga yurishi haqida itga savol berishi, qizirikida ham uzoq o'tirolmaganida ko'rinadi. Saodat aya ham Qorako'z uzoqdan imoratlar qorasi ko'ringanda, yoki kampir tugunini olib ko'chaga chiqqandagi kabi tinchini yo'qotgan edi. It va uning yo'l-yo'lakay turli qiliqlari tasvirida Saodat aya ruhiyatidagi o'zgarishlarning tadrijiy ifodasi berilgandi. Xususan, u yo'lga chiqishdan aniq maqsadi yo'qligi, o'g'linikiga yoki qizirikaga borishni yo'lda it bilan maslahat qilgani va qizirikida ham uzoq turolmasligi zamirida aslida itga mehribonlikdan ko'ra, qalbini, ruhini kemirayotgan tashvish, ichki kurash borligini ko'rsatadi. Bu hatto tasvirga ko'chgan. Syujet kompozitsiyasi, epik kechinmalar ifodasi personaj va it obrazining bir qaraganda o'xshashlik, yaqinlikka qurilgani, ammo mohiyatan har biri ichki ziddiyatga egaligi ham ko'zga tashlanadi.

Hatto o'limidan oldin, Bo'rixonni kuzatgani chiqmaydi-da, bolaligida Bo'rixon kiygan kiyimlarni olib chiqib yoqib yuboradi. Bu so'nggi ilinjning uzilganini bildiradi. Endi yashashdan maqsad, hayotda ma'ni qolmagandek tuyuladi. Lekin shu kuni mutavalli Saodat aya "haji badal" qilgani haqidagi xabarni olib keladi. Aynan ana shu xushxabar uning umriga ozgina bo'lsa-da umr qo'shadi. Ammo Saodat ayaning umri tugaganiga ishorani ham bildiradi. So'ngra vasiyat qiladi. Endi u nisbatan dadilroqdek tuyuladi. O'limidan keyin ham chiroyli ko'rinishi uchun sochini tarab, qoshiga o'sma qo'yishlarini tayinlaydi. Bu, bir tomondan, uning ori, g'ururi yetukligiga ishora hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakteridagi qat'iyatni ko'rsatadi.

Umuman olganda, hikoya kompozitsiyasida yozuvchi it obrazi orqali XX asr ikkinchi yarmida o'zbek oilalarida keng tarqalgan muammo: oqibatsizlik, oila qadriyatining yemirilishi muammolarini badiiy aks ettirgan. Bunda portret, dialog, ichki monolog, rivoya usullaridan samarali foydalanadi. Natijada hikoyaning shakl va mazmun birligi badiiy puxta, pishiq va originallik kasb etgan.

Ikkinchi bobning **“Sening bolalik osmoning” qissasida Norbo'ta va Bo'ynoq obrazi**” deb nomlangan ikkinchi faslida Nurali Qobulning “Sening bolalik osmoning” nomli qissasi asosida inson va it obrazining o'zaro bir-birini

---

<sup>22</sup> Карим, Баходир. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б.118.

to'ldirib kelishi masalasi ko'tariladi. Qissada Norbo'ta ismli olti-yetti yoshli bola va uning sevimli iti – Bo'ynoq bilan bog'liq voqealar tasviri yetakchilik qiladi. Qissada Qoravuz laqabli it ham ko'p o'rinlarda keladi. Ammo bosh qahramonga yaqini Bo'ynoq obrazi sanaladi.

Qissada muhim jihat voqeani roviy-qahramon gapirib berishi va uning itga bog'liq qimmatli ma'lumotlarni aytishi hisoblanadi. Avvalgi faslda Said Ahmadning hikoyasi voqeani roviy-muallif bayon qilgan edi va u hikoya janrida edi. Bu yerda esa asar janri qissa va uni roviy-personaj bayon qilmoqda. Lekin har ikkalasida ham it obrazi va uning asar kompozitsiyasidagi o'rnida o'zaro yaqinlik mavjud. Birinchidan, har ikki asarda ham it batafsil tasvirlangan, ikkinchidan esa, it bosh qahramonga chambarchas bog'langan bo'ladi. Uchinchidan, it obrazi orqali mualliflar jamiyatda muhim ma'naviy muammolarni yoritgan. Demak, yozuvchilar it obrazini shunchaki tasvirlamaydi. Ular zimmasiga bosh qahramon ruhiyatini ochish, jamiyatdagi qator ijtimoiy muammolarni yoritish vazifasini qo'yadiki, bu zamonaviy o'zbek qissalarida it obrazini badiiy tahlil etish muammosini kun tartibiga olib chiqadi. Aslida Bo'ynoq ham tirik maxluqot sifatida o'ziga xos tushunchaga, turmush tarziga ega.

Yozuvchi yaratayotgan asar mazmuni, birinchi galda xarakter orqali singdiriladi. To'g'ri, bu yerda badiiy so'z, tipik sharoit tasviri, asar kompozitsiyasi, syujet kabilar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo Norbo'ta xakteri, uning Bo'ynoqqa, Bo'ynoqning unga bo'lgan munosabati, itning xuddi aqlli, madaniyatli ona kabi o'z farzandlarini doimo nazorat qilib turishi haqida mulohazalar ham roviy-personaj tilidan ta'kidlanadi. Demak, bu yerda ham bola xakteri yuzaga chiqmoqda. Ammo vosita it obrazi sanaladi. Aynan tasviri va itning boshqalarga munosabati roviy nutqining asosiy mavzusi bo'lmoqda. Rovi-personaj o'z xakteri orqali it haqida badiiy informatsiyani ham yetkazmoqda.

Bundan tashqari, qissada yozuvchining itlarga bergan laqabi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, Said Ahmad hikoyasida it "Qorako'z Majnun" deb nomlaydi. U jigardek yaqin kishi, degan ma'noda ishlatiladi va u itning xakteriga juda mos tushgan. Xuddi shunday narsani biz Nurali Qobulning ushbu qissasida ham uchratdik. Chunki "Badiiy asarda shunday nuqtalar bo'ladi, shu nuqtalarga diqqat bilan e'tibor qilinsa, unda boshqa yashirin ma'no yoki ma'nolarning ham borligi sezilib qoladi"<sup>23</sup>. Yozuvchi itning bo'yni oq bo'lgani uchun unga Bo'ynoq ("Bo'yni oq" so'z birikmasining qisqartirilgan shakli Bo'ynoq bo'ladi) deb laqab qo'yilganini izohlab o'tadi.

Yozuvchi it obrazini asarga olib kirar ekan, unga qo'shimcha badiiy-estetik vazifalar ham yuklaydi. Aynan, Bo'ynoq obrazi jamiyatdagi ijtimoiy illatlar – tekinxo'rlik, dangasalik, manfaatparastlik, poraxo'rlik, xizmat vazifasini suiste'mol qilish kabilarga qarshi kurashda bolaning himoyachisi, sherigi vazifasini ham bajaradi. Bu birinchi galda itning qadimdan insonni jismonan himoya qilganligi haqidagi vazifaning evolyutsion o'zgarishi mahsuli o'laroq, inson axloqi bilan bog'liq illatlarga qarshi kurashuvchi ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan esa it obrazi tasviri yordamida yozuvchi inson tabiiy

<sup>23</sup> Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2019. – Б.290.

fazilatlardan uzoqlashib borayotganini ham namoyon etadi va buning oqibati fojea bilan tugashiga ishora qiladi.

Xullas, Nurali Qobulning ushbu qissasida Norbo‘ta va Bo‘ynoq obrazlari insoniyatning jonzotlar bilan birligi haqidagi qadim an‘anaviy tushunchasi zavol topayotganini yana bir bor isbotlashga xizmat qiladi. Yozuvchi bu ikki obraz orqali asl mehr tiriklikning asosi ekanini ham ta‘kidlaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Obraz talqini va kompozitsiya masalasi”** yoritilgan. Bobning birinchi faslida **“Normurod Norqobilovning “Changalzor iti” qissasida Qoravoy obrazining dinamik talqini”** berilgan.

Yozuvchi bosh qahramon Qoravoy obrazining dunyoga kelishi va olamni anglashi bilan bog‘liq voqeani bayon qiladi. Tavsifiy-rivoya usulidagi bayonda roviy-muallif har qanday obrazning tug‘ilishi bilan bog‘liq oddiylikdan murakkablikka yo‘nalgan dialektik fikrlash tarzini tanlagan. Bunda Qoravoy tug‘ilgan makon va uning badiiy tasviri beriladi. E‘tibor qilinsa, ilk ko‘rgani qalin novdali butalar Qoravoyni tashqi olamdan asrovchi vosita sifatida ham olinishi mumkin. Buta tasviridan keyin sekin-astalik bilan uning ostidagi xas-xashak tasviri berilishi bilan aniq vaqtga ham ishora qilinadi: *“Butalar tagidan o‘tgan yilgi xas-xashaklar mo‘ralab turar”*. Yozuvchi badiiy makon tasvirini berib, keyin aniq maqsadni tavsiflaydi. Lekin bu vaqt qish oxiri, bahor kelish arafasi ekanligini taxmin qilamiz. Chunki o‘tgan yilgi o‘tlar jonlantirilib, Qoravoyga qarab mo‘ralagandek berilishi ortidan obrazning rivoya markaziga chiqishi ham seziladi. Qoravoy tug‘ilgan joy changalzor o‘rtasidagi sayhonlik ekanligi esa bu joyni tabiiy qo‘rg‘onligini bildiradi. Changalzorning kengligi va yovvoyi tabiat ekanligi esa itning ham shu tabiat bilan uyg‘unligini anglatadi.

Asarda Olaparning zimmasidagi yetakchi vazifalardan biri, avvalo, itning shaxs sifatida voqelikni anglashi, idrok etishi, ikkinchidan esa Qoravoyning onasi sifatida o‘z kuchugiga nimalarni meros qoldigani, uchinchisi, majoziy ma‘noda, daydi, muqum turmush tarziga ega bo‘lmagan kishi sifatida ham berilganini e‘tirof etish kerak.

Yozuvchi umuminsoniy taraqqiyot natijasida xonakilashgan it va uning Olapar timsoli orqali it obrazining xususiyatlarini ko‘rsatar ekan uzoq asrlik yutuq bir zumda yo‘q bo‘lishini, xususan, Olaparning yovvoyilashishida insonning ham qaysidir ma‘noda o‘rni borligini ta‘kidlaydi. Odam Haydar ko‘sa timsolida yovvoyilikda Olapardan qolishmasligini namoyon etadi.

Qoravoy obrazini tasvirlar ekan, yozuvchi mazkur obraz zimmasidagi badiiy funksiyani yoritishda Olaparning ahamiyatini ham keltiradi. Natijada Olapar, Bo‘ribosar, Haydar ko‘sa, Uzunqul qora, Tolmas, Ola it, Qashqa, Bo‘ynoq, ona mushuk, yumronqoziq kabi obrazlar tizimi asar kompozitsiyadagi yetakchi Qoravoy obrazining mohiyati, shu obraz orqali yozuvchi o‘quvchiga aytmochi bo‘lgan asosiy maqsadi ifodalanadi. Zero, *“Har qanday asarning g‘oyaviy-estetik ta‘siri – undagi shaklning (obraz, syujet, til kabi) mazmun (g‘oya) bilan uyg‘unlashuviga, bu hodisaning betakrorligiga bog‘liqliki, bu vazifani asar kompozitsiyasi voqe qiladi”*<sup>24</sup>.

<sup>24</sup> Умуров Х. Адабиёт назарияси: – Тошкент: Шарк, 2002. – Б.137.

Professor Ibrohim Haqqul badiiy asardagi obraz va uning ifodasiga yondashuvda ehtiyotkorlik lozimligini ta’kidlab, quyidagilarni yozgan: “Badiiy ijodda haqiqat qancha yorqin rang va ohangda tasvirlanib, mohiyat nechog’lik go’zal manzaralarda aks ettirilgan bo’lsa, unga shuncha ehtiyot va mas’uliyat bilan qarash kerak. Aks holda, eng oliy haqiqat yoki favqulodda teran mohiyat ham jo’n va umumiy bir narsaga aylanishi muqarrar”<sup>25</sup>. Mazkur mulohazaga amal qilinsa, tadqiqot obyekti bo’lgan ushbu qissa va undagi Qoravoy obrazi ham katta ishtiyoq, zavq, shavq bilan yozilganini tasvirlar orqali anglaymiz. Asar tahlilida tiriklik mohiyati, mavjudlikning azaliy haqiqati teran aks etganki, bu Qoravoy laqabli it obrazining shunchaki tasviri emas, balki mazkur obraz zamirida, birinchi galda, muallifning borliqni anglashi, badiiy idrok etishida barcha yaratilarning ham tengligini tushunishi yotadi. Bu, avvalo, obrazdagi vatanni anglash, vatan tuyg’usi it yashaydigan makon kengayishi bilan birga kuchayib borishida ko’rinadi. Yozuvchi Qoravoyni dastlab sayhonlik, keyin changalzor vatan ekanligini anglashini berar ekan, vatan tuyg’usi tabiiy ekanligini to’g’ri ko’rsatadi.

Muallif Qoravoyning turli holatini tasvirlashda badiiy mazmunni aniq shaklda aks ettirishga harakat qiladi. Shuning barobarida qissa ruhiyatini ham yangilab boradi. Tasvir mazmunida ko’zga tashlangan epik kechinma Qoravoy obrazining takomillashib borishi asnosida ko’p bosqichli badiiy makon maydonini ham shakllantiradi.

Qissadagi obrazning sarguzashtlarini bayonida yozuvchi syujet jozibadorligini ta’minlashga intiladi. Buni itning turli vaziyat va munosabatlarga solinishida kuzatish mumkin. Xususan, mushukchadan tortib olingan sichqon, buning oqbatida malla ona mushuk yag’riniga zarbaga berishi, sichqon va uning qonida tanasiga “ajib bir titroq” taralganini his etishida ko’rish mumkin.

Xullas, “Changalzor iti” nomli qissa orqali yozuvchi asl tabiat qonuniyatlari asosida yashgan it obraz, baribir erk va ozodlikka tashna, u tabiat qoidalari bo’yicha yashashini badiiy ifodalaydi. Bunday it aslida ko’plab odamlarning orzusi, ammo tutqunlik, erksizlikda yashash va insonga qaram bo’lish Qoravoyga yot narsa ekanligi ta’kidlangan. Majoziy ma’noda esa Qoravoy shaxs erki qanday bo’lishini ham bildiradi.

Bobning ikkinchi faslida **“Oqbo’yin” qissasida Oqbo’yin obrazi va kompozitsiya masalasi**” yoritilgan.

Har qanday badiiy asarda obrazlar kompozitsiyasi, syujet kompozitsiyasi, badiiy nutq kompozitsiyasi aralash, qorishiq holda uchraydi. Chunki kompozitsiyaning barcha turlari yozuvchi nuqtai nazarini ifodalashga xizmat qiladi. Ammo badiiy adabiyotda obrazlarni yaxlit tizimga solmoqchi, bir nechta kompozitsiya shakllarini aniq ijodiy maqsadini birlashtirmoqchi bo’lsa, yozuvchilar turli usul va aspektdan foydalanishadi. Natijada har bir asar, jumladan, “Oqbo’yin” qissasi kompozitsiyasi boshqa asarlarnikidan tubdan farq qiladi. To’g’ri, mazkur qissa it obrazi bosh qahramon ekanligi, itning botiniy olami real asosda tasvirlangani bilan boshqa asarlarga yaqin turadi. Lekin yozuvchilar

---

<sup>25</sup> Иброҳим Ҳаққул ҳақиқати: адабий ўйлар, хикматлар, лутфлар / Нашрга тайёрловчи: Зулайхо Раҳмонова. – Тошкент: Trust and support, 2023. – Б.27.

qo‘llagan usul, asar kompozitsiyasida o‘ziga xoslik mavjud. Masalan, ba’zilari itni insonga sadoqat bilan xizmat qilishi, itga bo‘lgan ijobiy munosabati orqali it hamda odam munosabatlarini yoritisa, boshqa ijodkorlar itni nisbatan idealroq, ba’zi odamlarga qaraganda tobelik, tutqunlikka murosasiz qilib, ya’ni ozodlikni sevuvchi, erkka intiluvchi etib tasvirlasa, ba’zi yozuvchilarda esa insonning tubanligini ko‘rsatish uchun ham it obrazidan foydalaniladi. Normurod Norqobilov asarlarida esa “Yozuvchining mahorati, voqea-hodisalar mohiyatini oydinlashtirish jarayonida inson va tabiat munosabatiga, ular o‘rtasidagi parallel tasvirga urg‘u berishida kuzatiladi”<sup>26</sup>. Shu ma’noda uning “Oqbo‘yin” qissasi diqqatga sazovor asar hisoblanadi<sup>27</sup>. Unda Oqbo‘yin laqabli it obrazining kuchukligidan boshlab, odam va hayvonot o‘rtasidagi munosabatning ko‘p ham e’tibor qilinmaydigan, aslida esa muhim bo‘lgan qirralariga diqqat qiladi.

Ekspozitsiyada bosh qahramon – Oqbo‘yining portreti berilgan. Yozuvchi uning hozirgi holatida kuchuk ekanligi, hali oddiy narsalarni ham bilmasligini tovuq pati detali orqali ifodalaydi. Roviyy nutqidagi dastlabki ikki gapda asosiy e’tiborni Oqbo‘yinning tavsifiga bag‘ishlagan bo‘lsa, keyin uning diqqatini bo‘lishga, o‘girilib qarashga uddagan ona it ovozi va insonlar tasvirini beradi. Qizig‘i, ona it va har bir personajning aniq ta’rifi va portreti berilgan. Bu esa roviyy nutqi markaziga albatta hayvonot, aniqrog‘i it va odamlar o‘rtasidagi munosabat chiqishiga ishora qilinadi.

Qissaning tahlil jarayonida shu narsa ko‘zga tashlanadiki, yozuvchi keng va teran mazmunli hayotiy lavhalarni yaratishga intiladi. Bosh obraz yoki uning harakat doirasi, roviya obyektidagi tasvirlarni ham aniq maqsad va badiiy-esetik funktsiya nuqtai nazaridan ifodalaydi. Xususan, personajlarning xarakter qirralariga ba’zi shtrixlarni berarkan, ularning syujet kompozitsiyasidagi o‘rni, vazifasi, Oqbo‘yin obrazining badiiy takomilga ta’sirini ham yodda tutadi. Zero, “adabiyot – so‘z orqali badiiy tasvirlash san’ati ekan, badiiy til, dastavval, obrazlilik xususiyati bilan namoyon bo‘ladi, ya’ni hayotning jonli manzarasini yaratadi va ko‘rsatadi”<sup>28</sup>. Natijada roviyy nutqi orqali qahramonlar olamining badiiy-estetik kuchi yuzaga chiqadi. Bunda yozuvchi voqelik badiiy-estetik baholash iste’dodini namoyon etibgina qolmay, kuzatuvchanligi, teran tafakkuri, obrazlarning psixofiziologik holatini aniq badiiy tasviriy vositalar orqali ta’sirli aks ettiradi.

Yozuvchi aniq makon va vaqt doirasida Oqbo‘yinning o‘sib borishini tasvirlar ekan, it obrazining zimmasidagi badiiy-estetik vazifalar, Oqbo‘yinning boshqa obrazlar bilan munosabatiga oid lavhalarni beradi. Bu esa Oqbo‘yinning boshqalardan bir qadar ustunligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Xususan, bir joyda uning Oqto‘shga nisbatan dadilroq va aqlliroq ekanligi uchun ona it uning tumshug‘ini yalab, ma’naviy jihatdan maqtagan bo‘ladi. Bu esa uning Oqto‘shga qo‘shga nisbatan qo‘pol harakat qilishiga olib keldi. Ana shu makon va vaqt birligida Oqbo‘yindagi kibr ham ko‘rinadi. O‘z navbatida bu kabi maydadek tuyulgan tafsilotlar jam bo‘lib, bosh qahramonning badiiy portretiga eskiz bo‘ladi.

<sup>26</sup> Базаров С.Б. Normurod Norqobilov asarlarining poetikasi: filol fan.b.f.doktori (PhD)... dissertatsiya. – Jizзах. 2021. – Б.60.

<sup>27</sup> Норқобилов Н. Юзма-юз. Қиссалар. – Тошкент: Чўлпон. – Б. 43-102. [www.ziyounet](http://www.ziyounet) kutubxonasi.

<sup>28</sup> Умуров Х. Адабиёт назарияси: – Тошкент: Шарк, 2002. – Б.143.

Normurod Norqobilovning mazkur qissasi tashqi kompozitsiya jihatidan turli hajmdagi o‘n uchta faslga ajratilgan. Fasllar nomlanmagan faqat yulduzchalar bilan ajratilgan, xolos. Ularning har biri ma’lum voqeaning mantiqiy yakuni va nisbiy mustaqil tuzilishga egaligi bilan ajralib turadi.

Xullas, Normurod Norqobilov mazkur qissasida Oqbo‘yinning taqdirini bayon qilar ekan, itning aqlli, jasoratli, ba‘zan shoshqaloq, ba‘zan esa yovqurligiga urg‘u beradi. Lekin ba‘zi jihatlarida antigumanistik jihatlar ham borligini aytish kerak. Ammo inson tabiat munosabatlarida jonzotlarning hid bilish, ko‘rish, sezish, fikrlash kabi asosiy tabiiy fazilatlar orqali insonlar madaniydek tuyulsa-da, hali taraqqiyotdan ancha ortda ekanligini tasvirlaydi.

## XULOSA

1. Adabiyotshunoslikning muhim ilmiy masalalaridan biri bo‘lgan voqelikni badiiy idrok etish va ifodalashning kelib chiqishi kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk davrlariga borib taqaladi. Ana shu jarayonda qadimgi ajdodlarimiz badiiy obraz yaratishda real hayotda o‘zlari bilgan hayvonlar va ularning inson hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqib it obrazini sinkretik (qorishiq, aralash) maqsadlarda aks ettirishgan. Aynan ana shu jihat zamonaviy o‘zbek nasridagi it obrazining genezisi sifatida e’tirof etilishi lozim.

2. Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi bo‘lgan “Avesto”, qadimgi turkiy miflar va o‘zbek xalq maqolaridagi it obrazining turli maqsad, vazifalar, mavzulardagi ifodasi mazkur obraz taraqqiyotining rang-barang ifodasi borligini ochib beradi. Xususan, totemistik mohiyati, qorovullik, poyloqchilik, qo‘riqlash, ovchilik, sirdoshlilik, sabr-toqat timsoli bo‘la olish kabilar it obrazining yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Natijada qator asarlarda it obrazi asar syujeti, kompozitsiyasi, asar tili, rivoya tarzi, obrazlar o‘rtasidagi munosabatda yetakchi vazifa bajarganligi ilmiy isbotini topdi.

3. Juda qadim zamonlardan beri ijodkorlar o‘z fikr-mulohazalarini, botiniy olamini, ichki kechinmalarini obraz yordamida ifodalar ekan, bunda boshqa hayvonlar qatorida, it obrazidan ham samarali foydalanishgan. It obrazi xalq maqollari, rivoyatlarida xalqning hayotiy kuzatishlari, tajribalari va to‘plagan bilimlari mahsuli sifatida shakllangan va keyinchalik kishilarning (qadimgi ijodkorning ham) ijodiy niyati, asar mazmuniga yuklangan konkret vazifalarni aks ettirishga xizmat qilgan. Bunda, aksariyat xalqlarda itning kishiga sadoqati e’tirof etilgan. Keyingi o‘rinlarda esa itning xarakteridagi sezgirlik, ziyraklik, sodiqlik, qudratlilik kabi turli odatlar yordamida kishilarni turli balo-qazolardan himoya qiluvchi, qo‘riqlovchi kabi sifatlariga e’tibor qilingan.

4. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan hikoyalar va qissalardagi it obrazi turli poetik vazifalarni bajargan. Masalan, “Qorako‘z Majnun” hikoyada voqealarni yagona tizimga birlashtirib, bosh qahramon Saodat ayaning orzu-armonlarini ifodalovchi vazifasida keladi. Farzandlari anglamagan insoniylik mohiyatni it anglaydi. Natijada it obrazi hikoyadagi boshqa obrazlarning asl basharasini, fojeali hayotini fosh etadi. Haqiqiy inson bunday yashamasligi kerakligini ko‘rsatadi.

5. Said Ahmad it obrazi orqali ayrim kimsalarning ma'naviy qashshoqligi, manfaatparastligi, xudbinligi kabi illatlarini qoralagan hamda odamlar insonparvar, sadoqatli, mehr-oqibatli, halol, samimiy bo'lishi lozimligini ko'rsatib bergan. Bu XX asr ikkinchi yarmidan jamiyatimizda vujudga kelgan qator ijtimoiy muammolarni yoritishga xizmat qilgan. Yozuvchining "Qoplon" laqabli it obrazi mohiyatan ba'zi kimsalardan samimiyligi, ma'nani butunligi bilan farq qiladi hamda ibrat darajasiga chiqqan.

6. Inson tabiatning tarkibiy qismi sifatida hech qachon o'zini undan ustun qo'ymasligi, ayniqsa, insonlarga sadoqat bilan xizmat qiladigan itlarga ikkiyuzlamalarcha munosabatda bo'lgan katta yoshli kishilar o'z xatti-harakatlari uchun ayovsiz jazolanishi mumkinligi Nurali Qobulning "Sening bolalik osmoning" nomli qissasidagi Jo'ravoy, Norbo'ta va Bo'ynoq, Qoravuz obrazlari o'rtasidagi munosabatlar tasvirida yorqin namoyon bo'lgan. Natijada o'quvchi inson va it o'rtasidagi yaqinlikni anglashi va unga befarq bo'lmasligi ta'kidlangan.

7. Iste'dodli yozuvchi Normurod Norqobilovning "Changalzor iti" nomli qissasida madaniylik va yovvoyilik o'rtasidagi farqlar aslida ba'zi kishilar o'ylaganchalik katta emasligi qishloq odamlarining itga bo'lgan salbiy munosabatida aksini topgan. Xususan, it ham real borliqni sekin-astalik bilan anglashi va u ham dastlab borliqdagi har bir jonzotga iliq munosabatda bo'lganini tasvirlash orqali yozuvchi itlar ham borliqni tushunishda insonga yaqin ekanligini ko'rsata olgan.

8. "Oqbo'yin" qissasida esa Oqbo'yin obrazi tabiiy erki mohiyatini anglagan it sifatida yozuvchi qo'llagan rivoya tarzi va obrazlarning borliqni anglashdagi muhim badiiy g'oya insonparvarlik, shaxs erki, ozodlik kabilarni ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Natijada Normurod Norqobilov it obrazi orqali XX asr oxirlarida yashagan kishilar hayoti, turmush tarzi mohiyati nochorligini, bunday yashash insonga xos emasligini obraz tagzamiriga singdira olgan.

9. Said Ahmad Qorako'z Majnun obrazini realistik, Qoplon obrazini esa hajviy uslubda yaratib ifoda usulida ham turfalikni ta'minlagan. Nurali Qobul esa subyektiv asosda, aniqrog'i, Norbo'ta nigohi orqali it obrazini yaratgan. Normurod Norqobilov qissalarida "Changalzor iti" va "Oqbo'yin" tasvirida esa naturalistik unsur realistik tasvir bilan qorishiq holda kelgan. Natijada zamonaviy o'zbek nasrida it badiiy obraz sifatida turlicha aks ettirilishi kuzatilgan.

10. Har uchala yozuvchi ham hikoya va qissa janri doirasida badiiy nutq kompozitsiyasini it obrazlarining vazifasidan kelib chiqib shakllantirgan. Natijada Qoplon, Qorako'z Majnun, Bo'ynoq, Oqbo'yin, changalzordagi it obrazlari turli xarakterda namoyon bo'lgan. Bunda hikoya va qissalarning janriy imkoyatlari, nutqiy asosiga katta e'tibor qaratilgan. Lekin, Normurod Norqobilov asarlarida yetuk obraz bo'lishiga intilmagan o'rinlar ham uchraydi.

11. Zamonaviy o'zbek nasrida it badiiy obraz sifatida ko'plab tadqiqotlarga asos bo'lishi, eng muhimi, inson va tabiat munosabatlarida yetakchilik qilishi, shu yo'l bilan ular yaxlitligini ta'minlanishi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar o'z tadqiqotlarini kutmoqda.

**SCIENTIFIC COUNCIL PhD. 03/04.06.2020.Phil.76.04 AWARDING  
SCIENTIFIC DEGREES AT NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

---

**NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

**ASHUROV BEKZOD SHAVKATJON UGLI**

**POETICS OF DOG IMAGE IN MODERN UZBEK PROSE  
(as examples of the works of Said Ahmad, Nurali Qabul and  
Normurod Norqabilov)**

**10.00.02 – Uzbek literature**

**ABSTRACT  
of dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Namangan – 2024**

**The theme of doctoral (PhD) thesis was registered by was registered in the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.3.PhD/Fil2430.**

The doctoral dissertation has been completed at Namangan State University.

The abstract of the dissertation is available in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) on the website of the Academic Council ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) and on the Information and Education Portal "Ziyonet" ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Scientific supervisor:** **Sulaymonov Muminjon Yusbjonovich**  
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

**Official opponents:** **Rahmonova Zulayho Jalolovna**  
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yulchiyev Qahhor Vahobovich**  
Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

**Leading organization:** **Andijan State University**

The defense of the dissertation will take place at the meeting of the Scientific Council PhD.03/04.06.2020.Phil.76.04 at Namangan State University "25" at 9:00, 2024. (Address: 161, Baburshah street, Namangan city, 160119. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Fax: 228-85-02. Website: [www.namdu.uz](http://www.namdu.uz), e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz). fax: (+99869) 227-07-61; e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz))

The dissertation is available at the Information Resource Center of Namangan State University (registered with the number 1660). (Address: 160119, Namangan city, Baburshah street, 161. Tel.: (99869) 227-29-81).

The abstract of the dissertation was distributed on "17" december 2024.  
(Register protocol 21 on "17" december 2024).



**Z.Y.Sodiqov**  
Chairman of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Philological Sciences (DSc), Professor

**I.O.Darvishov**  
Scientific Secretary of the Scientific  
Council awarding scientific degrees,  
Doctor of Philosophy on Philological  
Sciences, Associate Professor

**F.I.Karimova**  
Chairman of the Scientific Seminar under  
the Scientific Council awarding scientific  
degrees, Doctor of Philological Sciences,  
Associate Professor

## INTRODUCTION (abstract of the doctoral (PhD) dissertation)

**The relevance and demand fo the dissertation topic.** Representatives of world literature – creators – have been looking at the world of animals with great interest since ancient times. The expression of the image of animals such as horses, dogs, wolves, tigers, snakes, fish, sheep, cows, elephants, birds such as geese, ducks, hummingbirds, blackbirds, and stork, representing the level of artistic thinking that poets and writers have realized. This necessitates the study and evaluation of the images of these animals from the perspective of each era. In particular, the fact that the image of the dog reflects the problems of different eras and psychology based on unique literary and aesthetic views in works of art, is a means of expressing creative individuality, national and universal values, has scientific and practical significance, and the weight of the study of the topic is increasing.

In world literary studies, the problem of artistic image and imagery has been seriously studied since ancient times. However, since the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, it has become a tradition to look at the image of a dog from a new perspective, and even today, the reasons for the widespread tradition of artistic depiction of the image of an animal are related to the mythical period, especially totemism. However, in modern literary studies, there is a need to show the factors of creating the image of an animal, its artistic and aesthetic foundations, the characteristics of each animal as an artistic image, its poetics, and the individual skills of each creator who reflects animals. The artistic image of various animals and the tasks assigned to them serve to strengthen the worldview of people, the positive qualities in the relationship between animals and humans, the artistic interpretation of reality using the image of an animal, the aesthetic ideal, the writer's skill, and the coverage of poetic issues show that there is a unique development of the tradition of artistic depiction of animals in world literature.

An in-depth and comprehensive study of the artistic image in Uzbek literature, particularly the image of animals, allows for a certain solution to the task of evaluating the artistic reflection of contemporary reality and understanding the changes in people's worldview. "...Preservation, scientific analysis of our rich historical, scientific, spiritual and intellectual heritage, providing detailed information about its content and significance to specialists in the field, students and students studying in relevant educational areas, wide promotion of the works of our great scientists and thinkers among the world community, effective use in the development of modern science, spirituality and practice, and passing it on to future generations"<sup>1</sup> sets new tasks for literary studies. Events occurring in the life of society are reflected in the psyche of the creator, processed in his thinking, and realized as a work of art. It is precisely these features that explain the relevance of the topic.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2995-сонли Қарори. // «Халқ сўзи» газетаси. 2017 йил 25 майдаги 103 (6797)-сон.

This dissertation research, to a certain extent, serves to fulfill the tasks outlined in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-495 dated February 16, 2017 "On further improvement of post-university education", No. PF-6097 dated October 29, 2020 "Science 2030 "On approval of the concept of development until 2017" dated April 20, 2017 Resolution No. PQ-2909 "On measures to further develop the higher education system" and the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 124-F of February 16, 2018 on the holding of an international conference on the topic "Current issues of studying and promoting Uzbek classic and modern literature at the international level".

**The relevance of the research** to the priority areas of development of science and technology in the republic. This research was conducted in accordance with the priority direction of science and technology development of Republic I, "Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state."

**The connection of the dissertation research to the research plans of the higher educational institution where the dissertation was completed.** The dissertation was carried out within the framework of the "Important issues of Uzbek literary studies" theme of the research plan of Namangan State University.

**The extent of the problem's study.** Issues such as the artistic image and imagery, the nature of the image, artistic-aesthetic function, relationship with the plot and composition have been researched since ancient times. In particular, Plato, Aristotle, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Abu Nasr Farabi, Quintus Horace Flaccus, Julius Caesar Scaliger, Philip Sidney, Georg Hegel, V. G. Belinsky, A. Potebnya, V. Zhirmunsky, B. Shklovsky, A. Sa'diy, A. Fitrat, Rena Wellek, Austin Warren, Izzat Sultan, G. Pospelov, O. Sharafiddinov, B. Sarimsakov, U. Toychiyev, I. Gafurov, H. Umurov, D. Kuronov, Y. Solijonov, V.Y. Khalizev, N.D. Tamarchenko, Terry Eagleton<sup>2</sup>, etc., the issue is expressed in different ways.

---

